



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 5-fevral

52-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 1-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Cyber university” davlat universitetini tashkil etish to‘g‘risida” 2025-yil 20-yanvardagi PQ-14-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 47-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Cyber university” davlat universitetini tashkil etish to‘g‘risida” 2025-yil 20-yanvardagi PQ-14-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 1-fevraldagi 47-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 1-fevraldagi 47-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Raqamli texnologiyalar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmatining Raqamli texnologiyalar vazirligining “Cyber university” davlat universitetini (keyingi o‘rinlarda– Universitet) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

Universitetning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilanganligi;

axborotni himoyalash, axborot va kiberxavfsizlik, raqamli texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot, sun‘iy intellektga asoslangan avtomatlashtirilgan axborot-tahliliy tizimlarni yaratish, robototexnika va boshqa turdosh sohalar bo‘yicha kadrlar tayyorlashi;

raqamli texnologiyalar sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishi;

o‘quv jarayonini ilg‘or xorijiy tajriba va zamonaviy ta‘lim texnologiyalari asosida tashkil etish hamda ochiq axborot-ta‘lim muhitining rivojlanishiga ko‘maklashishi;

yoshlarning bilim olishi va kasb egallashiga qo‘shimcha shart- sharoitlar yaratish, davlat organlari, korxonalari hamda boshqa tashkilotlarni kadrlar bilan ta‘minlashda saralash va qamrovni kengaytirishi;

o‘quv va ilmiy loyihalarni amalga oshirishda yetakchi respublika va xorijiy oliy ta‘lim hamda ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, raqamli texnologiyalar ishlab chiquvchilari va iste‘molchilari, boshqa sohaviy korxonalar bilan hamkorlik qilishi;

tegishli ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv-metodik adabiyotlarni yaratish, talabalar va mutaxassislarni jalb qilgan holda fundamental, ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borishi;

belgilaninishicha;

Universitet to‘liq akademik, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv jihatdan mustaqil bo‘lgan davlat oliy ta‘lim muassasasi hisoblanadi va bitiruvchilarga davlat namunasidagi diplom berilishi;

Universitetga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha

qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–60-son va “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–61-son qarorlarida belgilangan akademik, moliyaviy va tashkiliy mustaqillikka oid tartib-taomillar tatbiq qilinishi;

talabalarni o‘qitish davlat granti va to‘lov-kontrakt asosida olib borilishi;

Universitetga qabul parametrlari manfaatdor vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarning kibernetika sohasi bo‘yicha kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini hisobga olgan holda “Cyber university” davlat universiteti kuzatuv kengashi (keyingi o‘rinlarda - Kuzatuv kengashi) qarori bilan tasdiqlanishi;

kibernetika sohasi bo‘yicha kadrlarga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqib, Kuzatuv kengashiga yangi istiqbolli bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochish huquqi berilishi;

Universitet O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri va davlat tilida o‘z nomi tushirilgan muhr, bank hisobvaraqlari, shtamp va boshqa rekvizitlarga ega bo‘lishi;

Universitetga quyidagi huquqlar berilishi;

talabalarni o‘qitish uchun to‘lov-kontrakt hamda jalb etilgan xorijiy mutaxassislar va mahalliy xodimlarning mehnatiga haq to‘lash miqdorlarini bozor konyunkturasidan kelib chiqib, mustaqil belgilashi;

ta’lim olib boriladigan til, ta’lim shakli, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun o‘qish davomiyligi muddatlarini qonunchilik hujjatlariga muvofiq mustaqil belgilashi;

ta’lim yo‘nalishlari ro‘yxati va ularga mos test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasini Universitet tomonidan belgilash va tasdiqlash uchun Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga kiritishi;

bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha fanlar tarkibi va mazmunini mustaqil belgilashi;

talabalarni qabul qilish uchun qo‘shimcha va alohida imtihonlar o‘tkazish tartibini belgilashi;

talabalarni yakuniy attestatsiyadan o‘tkazish tartibini belgilashi;

talabalar o‘qishini boshqa oliy ta’lim tashkilotlaridan Universitetga ko‘chirish, shuningdek, o‘qishini qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibini belgilashi;

yetakchi xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari bilan qo‘shma ta’lim dasturlarini joriy etish, respublika va chet elda o‘tkaziladigan ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminarlarda ishtirok etishi;

pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotatsiyasiga oid tartibni belgilashi;

Universitetda oliy ta’limdan keyingi ta’limni tashkil etishi;

Universitetning umumiy faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish hamda rivojlanish istiqbollari belgilash maqsadida “Cyber university” davlat universiteti kuzatuv kengashi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha, Kuzatuv kengashi Universitetning oliy boshqaruv organi hisoblanishi;

quyidagilar Kuzatuv kengashining asosiy vazifalari etib belgilanishi;

Universitetda umumiy boshqaruvni amalga oshirishi;

Universitetning rivojlanish istiqbollari belgilashi;

Universitet rahbariyatini (ijroiya organini) tayinlashi;

ta’lim jarayonini, talabalarning o‘quv hamda ishlab chiqarish amaliyotini samarali tashkil etish va takomillashtirish, ta’lim sifatini tizimli ravishda oshirib borish, Universitet bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashishi;

Universitet faoliyatini rivojlantirish maqsadida homiylik xayriyalari va texnik ko‘mak mablag‘larini (grantlarni) jalb etishi;

Universitetning moddiy-texnik, o‘quv-metodik bazasini mustahkamlash, ijtimoiy infratuzilmasini yaxshilashga ko‘maklashish, uni zamonaviy o‘quv laboratoriya uskunalari va o‘quv-metodik adabiyotlar bilan jihozlashni tashkil etishi;

ilmiy ishlanmalar natijalarini hayotga samarali joriy etish, ta'lim va ilm-fan sohasida xalqaro hamkorlik o'rnatish va uni rivojlantirishi;

talabalarni ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash, ularning yashash sharoitlarini yaxshilash va bo'sh vaqtlaridan samarali foydalanishini tashkil etish, shuningdek, talabalar dam olishi uchun zarur shart- sharoitlar yaratishga ko'maklashishi;

istiqbolli pedagoglarni va talabalarni tanlov asosida sohaga ixtisoslashgan xorijdagi boshqa yetakchi ta'lim tashkilotlariga stajirovka o'tashga yuborish uchun tanlab olishni hamda ularga xorijda tahsil olish uchun zarur mablag'lar ajratishni tashkil etishi;

Universitet tarkibida IT-klaster (axborot texnologiyalar parki, texnopark) tashkil etilsin va uning asosiy faoliyat yo'nalishlari etib quyidagilar belgilanganligi;

ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan texnologik va innovatsion g'oyalarga yo'naltirilgan startap loyihalarni yaratish hamda amaliyotga joriy etishi;

yosh olimlarning ilmiy izlanishlari hamda maqsadli loyihalar doirasida milliy va xorijiy tashkilotlarning, shu jumladan, ilmiy va ta'lim muassasalarining buyurtmanomalari asosida ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarini olib borishi;

axborotni himoyalash, axborot va kiberxavfsizlik, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellektga asoslangan avtomatlashtirilgan axborot-tahliliy tizimlar, robototexnika va boshqa turdosh sohalarda milliy vositalar va mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun qulay shart- sharoitlar yaratish, ularni ichki va tashqi bozorlarda ilgari surish, innovatsion ishlanmalarni rag'batlantirishi;

iqtisodiyot tarmoqlarining yetakchi kompaniyalari mutaxassislari ishtirokida sohaning dolzarb masalalariga bag'ishlangan mahorat darslari, treninglar va malaka oshirish kurslari, shuningdek, ilmiy- amaliy konferensiyalar va seminarlar o'tkazishi;

quyidagilar Universitet faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilanganligi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari;

to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar;

xo'jalik faoliyatidan va shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlarning grantlari;

Raqamli texnologiyalar vazirligi mablag'lari;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalari;

Belgilanishicha, Universitet faoliyatini tashkil etish va kengaytirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish uchun:

2025-yilda asoslangan hisob-kitoblarga muvofiq Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasidan zarur mablag'lar ajratilishi;

2026-2027 yillarda Davlat byudjeti parametrlarida tegishli mablag'lar nazarda tutilishi;

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filialining Toshkent viloyati Nurafshon shahri "Yangiobod" MFY, Yangiobod ko'chasi, 42-uy manzilida joylashgan bino va inshootlarini tutash hududlari bilan birgalikda operativ boshqaruv huquqi asosida Universitetga o'tkazib berilishi;

bunda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filialining talabalari o'quv jarayonini 2024/2025-o'quv yili yakuniga qadar Universitetga berilgan binolarda davom ettirishi;

Universitetga, istisno tariqasida:

Universitetga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun jihozlar, texnika va materiallar, ehtiyot qismlar, dasturiy mahsulotlar, butlovchi buyumlarni yetkazib berish bo'yicha tovar yetkazib beruvchi (ish bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi) hamda ularning rasmiy dilerlari (distribyutorlar) bilan eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali shartnomalar tuzishga;

Universitetning har yil yakuniga ko'ra tushumlardan iqtisod qilingan mablag'lari va boshqa daromadlarini (o'z daromadlaridan tegishli darajadagi budjetga o'tkaziladigan ajratmalarni) mazkur

ta'lim tashkiloti ixtiyorida qoldirish hamda ushbu mablag'larni axborotni himoyalash, axborot va kiberxavfsizlik sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarishga oid xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltirishga ruxsat berilishi;

Universitet 2028-yil 1-yanvarga qadar mazkur qarorda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun muqobili O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan qurilma, dasturiy va texnik vositalar, butlovchi qismlarni respublikaga olib kirishda bojxona to'lovlaridan (qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari) ozod etilishi;

belgilanishicha;

a) 2025/2026-o'quv yili uchun Universitetga bakalavrlar tayyorlash bo'yicha kunduzgi ta'lim shakliga 100 ta davlat granti ajratilishi.

Bunda:

ajratiladigan davlat grantlari ta'lim yo'nalishlari kesimida Kuzatuv kengashi tomonidan taqsimlanishi;

navbatdagi o'quv yilidan boshlab davlat granti davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari asosida ajratilishi;

b) davlat oliy ta'lim muassasalaridan Universitetga talabalar o'qishini istisno tariqasida ko'chirish O'zbekiston Respublikasi ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi qaroriga asosan suhbat o'tkazish orqali amalga oshirilishi;

d) Kuzatuv kengashi tomonidan har yili 1-aprelga qadar to'lov-kontrakt asosidagi qabul parametrlari tasdiqlanadi hamda qabul jarayonlarini tashkil etish uchun O'zbekiston Respublikasi ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasiga taqdim etilishi;

e) Universitetning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha davlat buyurtmasi parametrlarining ta'lim tillari bo'yicha taqsimoti Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar

vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Davlat xavfsizlik xizmati takliflariga asosan O'zbekiston Respublikasi ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan belgilangan muddatlarda tasdiqlanishi;

f) Universitetda o'quv jarayoni 2025-yil sentabr oyida boshlanishi;

Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Nurafshon filiali faoliyatini 2024/2025-o'quv yili yakunlanganidan so'ng tugatishi;

Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Nurafshon filiali talabalari o'qishini Toshkent axborot texnologiyalari universitetining tegishli kurslariga belgilangan tartibda ko'chirishi;

Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Nurafshon filiali tugatilishi munosabati bilan ushbu filial xodimlari bilan bog'liq mehnat munosabatlarini qonunchilikda belgilangan tartibda hal etish choralarini ko'rishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Viloyat hokimining o'rinbosari G'.Djamalov, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (A.Gaffarov), Universitet faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida jalb etiladigan professor-o'qituvchilar va boshqa malakali mutaxassislarni xizmat uylari hamda talabalarni turarjoylar (yotoqxonalar) bilan ta'minlash uchun, shu jumladan, zarur hollarda, universitetning qo'shimcha bino va inshootlarini qurish uchun tegishli yer uchastkalarini ajratish choralarini ko'rish;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (A.Gaffarov), manfaatdor boshqarma va idoralar, shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-yanvardagi PQ-14-son qarori talablari asosida ish tashkil etish topshirilganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining tegishli o'rinbosari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov